



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘shko‘pir tumani hokimi
Korrupsiyaga qarshi kurashish
hududiy Kengashi raisi
Sh.Axmedov
6 mart 2024-yil

**Korrupsiyaga qarshi kurashish Qo‘shko‘pir tumani
Kengashining yig‘ilish
B A Y O N I**

“6” mart 2024-yil

№ 14

Qo‘shko‘pir shaharchasi

Raislik qildi:

Sh.Axmedov - tuman hokimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashi raisi

Ishtirok etdilar:

Qo‘shko‘pir tumani sektor rahbarlari, tuman hokimining o‘rinbosarlari, tuman hokimligi xodimlari va boshqa tegishli tashkilotlar rahbarlari (ro‘yxat bo‘yicha)

K U N T A R T I B I:

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining 2022-yil 26-oktabrdagi “Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish to‘g‘risida”gi 01-019/4842-sonli taqdimnomasining muhokamasi.

(Sh.Axmedov, B.Matrasulov, O‘.Xusainov, O‘.Ashirov)

Kun tartibidagi masala yuzasidan tuman hokimi Sh.Axmedov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining 2022-yil 26-oktabrdagi “Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish to‘g‘risida”gi 01-019/4842-sonli taqdimnomasi muhokamasini o‘qib eshittirdi.

Mamlakatda Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish to‘g‘risida yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish, korrupsiya holatini tizimli tahlil qilish ishlarini olib bormaqdalar.

Jumladan:

- korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalarni aniqlash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni amalga oshirish;
- fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;
- Vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu jumladan, banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (kompleks-nazorat)ni joriy etish;

-davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

-korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

-korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko'rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish;

-korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash va boshqalar.

Agentlik bir qator huquq hamda vakolatlariga ega:

-korrupsiyaga oid, birinchi navbatda, O'zbekistonning milliy manfaatlariga va xalqaro imidjiga zarar yetkazuvchi jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qilish;

-budjet mablag'larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi, davlat xaridlari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog'liq materiallarni talab qilish, olish va o'rganish;

-jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish;

-korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy surishtiruvlar o'tkazish;

-ijro hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalarni kiritish.

Ushbu sohada fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni amalga oshiradi va jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantiradi.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imidjini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar olib borilishini aytib o'tdi.

Shundan so'ng, tuman prokurori B.Matrasulov so'zga chiqib, prokuratura organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yuzasidan samarali ishlar qilinayotganligini, prokuratura organlari tomonidan har bir huquqbuzarlik holati tergov qilinib, ko'rib chiqish uchun sud organlariga yuborilganligini hamda ushbu korrupsiyaviy jinoyatlarni aksariyat qismi qurilish va bank sohasidagi jinoyatlarni tashkil qilishini ko'rsatib o'tdi.

Shuningdek, kun tartibidagi masala yuzasidan, tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i O'.Xusainov so'zga chiqib, IIB tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida samarali ishlar olib borilayotganligini ta'kidladi.

Shundan keyin, korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashi a'zolari so'zga chiqib, o'zlarining fikr va mulohazalarini hamda takliflarini bildirdilar.

Kun tartibida ko'rilgan masalani atroflicha muhokama qilib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1.O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining 2022-yil 26-oktabrdagi "Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish to'g'risida"gi 01-019/4842-sonli taqdimnomasi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosarlari, tashkilot rahbarlari hamda hokimiyat xodimlariga ilovaga muvofiq Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish to'g'risidagi bayoni tanishtirilsin.

3. Ushbu yig'ilish bayoni topshiriqlari ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman

Yig'ilish kotibi



G'.Kenjayev